

## **Soliq qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatiniing 2024 yildagi asosiy yo‘nalishlari**

### **I. Soliq nazorati va soliq nizolarini hal etish samaradorligini tahlil qilish**

- 1.1. 2022 - 2023 yillarda soliq nazorati natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish
- 1.2. Soliq nizolarini sudgacha ko‘rib chiqish natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish
- 1.3. Soliq nizolarini sud tomonidan ko‘rib chiqish natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish

### **II. Soliq qonunchiligini takomillashtirish**

#### **2.1. Konsyeptual hujjatlarni ishlab chiqish**

- 2.1.1. Soliq organlarining nazorat-taftish faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi
- 2.1.2. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun jazo choralarini belgilash va qo‘llash konsepsiyasi
- 2.1.3. Soliq organi mansabdor shaxslarining qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligini huquqiy tartibga solish konsepsiyasi
- 2.1.4. Soliq hisobini huquqiy tartibga solish konsepsiyasi
- 2.1.5. Savdo sohasida jismoniy shaxslar tomonidan P2P to‘lovlari va naqd pulda hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog‘liq soliq huquqbuzarliklarining oldini olish konsepsiyasi

#### **2.2. Soliq kodeksining yangi boblari, bo‘limlari va moddalari bo‘yicha takliflar tayyorlash**

- 2.2.1. Soliq kodeksining “Soliq organlari mansabdor shaxslarining huquqbuzarliklari va ularni sodir etganlik uchun javobgarligi” nomli yangi bobi loyihasi
- 2.2.2. Soliq kodeksining “Soliq hisobi” nomli yangi bobi loyihasi
- 2.2.3. Soliq kodeksining “Lizing operatsiyalarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli yangi moddasi loyihasi.

#### **2.3. Soliq kodeksi normalarini tuzatish bo‘yicha takliflar tayyorlash**

- 2.3.1. “Soliq nazorati” nomli V bo‘limga o‘zgartirishlar (ma‘murchilik masalalari, tahlika-tahlil tizimi va h.k)

2.3.2. Soliq kodeksidagi tushunarsiz va munozarali normalarni aniqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2.3.3. Atamalar lug'ati qo'shilishi

### **III. Soliq qonunchiligi bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish**

Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish

### **IV. Soliq organlarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish**

4.1. Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha idoraviy hujjatlar va chora-tadbirlar rejalari hamda ularning bajarilishi bo'yicha hisobotlarni ekspertizadan o'tkazish

4.2. Korrupsiyaning mavjud darajasini baholash, korrupsiyaning namoyon bo'lishiga yordam beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash uchun ijtimoiy so'rovlar o'tkazilishini tashkil etish.

4.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

### **V. Soliq qo'mitasi faoliyati yuzasidan jamoatchilik fikrini monitoring va tahlil qilish. Soliq qo'mitasi tashabbusi bilan soliq to'lovchilar o'rtasida davriy ravishda so'rovlarnomalar o'tkazish**

5.1. "Soliq organlari – soliq to'lovchilarning hamkori" tamoyilining amalga oshirilishi va ko'rsatilayotgan xizmatlardan qoniqish darajasi bo'yicha soliq to'lovchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish.

5.2. Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha soliq to'lovchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish

### **VI. Jamoatchilik kengashi faoliyati to'g'risida soliq to'lovchilarni xabardor qilish**

6.1. Har chorakda soliq.uz veb-saytida Jamoatchilik kengashi faoliyatiga oid ma'lumotlarni e'lon qilib borish

6.2. Jamoatchilik kengashi faoliyati to'g'risida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda, ixtisoslashtirilgan buxgalteriya resurslarida axborot berish.